Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati (“Qizilqumsement” AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Karriev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellastirish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayeva Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHDA DASTURIY TA'MINOT VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Xodjayeva Mu'tabar Xamidulla qizi

TDIU "Audit" kafedrası v.b. professori

Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti

magistratura talabasi

Email: chuponovagulirano@gmail.com

ORCID: 0009-0001-8030-0366

Annotatsiya: Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida audit sohasida raqamli transformatsiya jarayoni kuchaymoqda. Yaqin yillarda qog'ozsiz auditlar keng tarqalishi kutilmoqda, chunki ko'plab tashkilotlar hujjat aylanishini to'liq raqamlashtirish sari intilmoqda. Shu bilan birga, auditorlarga onlayn rejimda ishlash imkonini beruvchi ilg'or dasturiy vositalar ishlab chiqilmoqda. Bunday o'zgarishlar natijasida auditorlar asosiy ish quroli sifatida onlayn audit tizimlaridan foydalanishga majbur bo'ladi hamda dalillarni elektron manbalar orqali to'playdi. Mazkur maqola texnologiyaning audit jarayonlariga hozirgi ta'sirini tahlil qiladi va u bilan bog'liq kelajakdagi yo'nalishlarni yoritadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining auditni rejalashtirish, tekshirish va hujjatlashtirish bosqichlariga qanday ta'sir qilgani haqida muxtasar tahlil taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, audit, rejalashtirish, hujjatlashtirish, risk, dasturiy ta'minot, bilimlarni boshqarish, xatarlarni boshqarish.

Abstract: As a result of the rapid development of information technologies, the process of digital transformation in the audit sector is gaining momentum. Paperless audits are expected to become widespread in the coming years, as many organizations strive to fully digitize document management. At the same time, advanced software tools are being developed that allow auditors to work online. As a result of such changes, auditors are forced to use online audit systems as their main tool and collect evidence from electronic sources. This article analyzes the current impact of technology on audit processes and highlights future directions related to it. In particular, a brief analysis of how information technologies have affected the stages of audit planning, verification and documentation is provided.

Key words: information technology, audit, planning, documentation, risk, software, knowledge management, risk management.

Аннотация: В результате быстрого развития информационных технологий процесс цифровой трансформации в сфере аудита набирает обороты. Ожидается, что безбумажные аудиты получат широкое распространение в ближайшие годы, поскольку многие организации стремятся полностью оцифровать документооборот. В то же время разрабатываются передовые программные средства, позволяющие аудиторам работать в режиме онлайн. В результате таких изменений аудиторы вынуждены использовать системы онлайн-аудита в качестве своего основного инструмента и собирать доказательства из электронных источников. В данной статье анализируется текущее влияние технологий на процессы аудита и выделяются будущие направления, связанные с ним. В частности, приводится краткий анализ того, как информационные технологии повлияли на этапы планирования аудита, проверки и документирования.

Ключевые слова: информационные технологии, аудит, планирование, документация, риск, программное обеспечение, управление знаниями, управление рисками.



KIRISH

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi auditorlik sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy audit uslublari asta-sekinlik bilan zamonaviy, raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi tizimlarga o'z o'rnini bo'shatmoqda. Elektron hujjatlar, masofaviy audit imkoniyatlari, real vaqt rejimidagi tranzaksiyalar va onlayn ma'lumotlar almashinuvi kabi texnologik yutuqlar auditorlik amaliyotida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

KPMG va AICPA kabi yetakchi audit tashkilotlarining hisobotlariga ko'ra, korporativ axborot tizimlari, masalan, SAP, Oracle va boshqa ERP platformalarining keng joriy qilinishi natijasida audit jarayonlari integratsiyalashgan va avtomatlashtirilgan muhitda amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat auditorlik jarayonini soddalashtiradi, balki nazorat, aniqlik va tezkorlik darajasini ham oshiradi¹.

O'zbekiston tajribasida ham davlat miqyosida audit faoliyatining raqamlashtirilishini qo'llab-quvvatlovchi muhim tashabbuslar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son²li qarori asosida auditorlik tashkilotlari va auditorlar jamoat birlashmalari o'rtasidagi elektron hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun Moliya vazirligi tomonidan "Audit" nomli dasturiy majmua ishlab chiqildi. Ushbu platforma doirasida "auditorlik tashkilotining shaxsiy kabineti" va "jamoat birlashmasining shaxsiy kabineti" kabi veb-xizmatlar joriy etildi. Bu tizimlar audit faoliyatining shaffofligini oshirish, davlat organlari bilan elektron axborot almashuvini yo'lga qo'yish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etishda muhim qadam bo'ldi³.

Raqamli transformatsiya auditorlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda – ular nafaqat texnik bilimlarga ega bo'lishlari, balki zamonaviy texnologik xavflarni baholay olish, tizimlararo muvofiqlikni ta'minlash va katta hajmdagi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish qobiliyatlariga ega bo'lishlari zarur.

Audit sohasida yuz berayotgan raqamli transformatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri – bu qog'ozli hujjatlar asosidagi audit jarayonlaridan to'liq raqamlashtirilgan, avtomatlashtirilgan audit tizimlariga o'tishdir. An'anaviy ravishda auditorlar hujjatlarni qo'lda tekshirib, jismoniy dalillarga tayanib ishlagan bo'lsa, hozirda bu faoliyat elektron hujjatlar va raqamli izlar orqali amalga oshirilmoqda.

Audit jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri bu – rejalashtirishdir. Aynan shu bosqichda auditor tekshirish doirasini belgilaydi, asosiy risklarni aniqlaydi va zaruriy audit tartiblarini ishlab chiqadi. Axborot texnologiyalari esa bu bosqichni samarali va aniq bajarish uchun kuchli vosita hisoblanadi.

Zamonaviy dasturiy ta'minot auditorlarga tashkilotning ichki nazorat tizimini chuqur tahlil qilish, xavf omillarini aniqlash va ularni baholash imkonini beradi. Maxsus algoritmlar orqali ishlaydigan audit dasturlari – masalan, ACL, IDEA va boshqa ilg'or vositalar – auditorlar tomonidan berilgan ma'lumotlarga asoslanib, xavflar xaritasini yaratadi va audit testlarining batafsil rejasini tuzadi.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari yordamida auditor mijozning biznes strategiyasini, ishlab chiqarishdan to'savdogacha bo'lgan barcha jarayonlarini ko'rib chiqib, ushbu faoliyatdagi potentsial muammolar va noaniqliklarni ilgari aniqlashi mumkin. Bunday tizimlashtirilgan yondashuv orqali auditorlik rejasining aniqligi oshadi va audit davomida noaniqliklar kamroq yuzaga keladi.

KPMG (2023) tomonidan taqdim etilgan yondashuvda, rejalashtirish bosqichi faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki tashkilotning umumiy biznes maqsadlariga mos keladigan indikatorlar asosida amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlanadi. Bunda texnologiyalar muhim rol o'ynaydi – ular auditorlarga real vaqt ma'lumotlarini yig'ish, ularni tahlil qilish va boshqaruv xulosalarini tezda chiqarish imkonini beradi. Shunday qilib, axborot texnologiyalari auditni rejalashtirish jarayonining har bir bosqichida strategik yondashuvni ta'minlab, umumiy audit samaradorligini oshiradi⁴.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarining auditni rejalashtirish bosqichidagi o'rnini aniqlash va tahlil qilishdir. Shu orqali zamonaviy texnologiyalar auditorlik samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, xavflarni baholash va audit testlarini rejalashtirishdagi roli yoritiladi.

Tadqiqot dolzarbligi shundaki, ko'plab tashkilotlar hozirda raqamli muhitda faoliyat yuritmoqda va bu auditorlar uchun yangi bilim va malakalarni talab qilmoqda. Texnologik vositalar yordamida auditorlar real vaqt rejimidagi ma'lumotlar bilan ishlash, murakkab tizimlar xavfsizligini baholash va global tajriba asosida qarorlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot amaliy hamda nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

1 KPMG. (2024, July 24). The Role of Internal Audit Along the Journey Towards SAP S/4HANA.

2 <https://lex.uz/docs/-3914502>

3 PQ-3946-сон 19.09.2018. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-3914502>

4 KPMG. (2024, July 24). The Role of Internal Audit Along the Journey Towards SAP S/4HANA.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologiyalarning auditni samarador qilishdagi o'rni oshmoqda, biroq ular yangi xavf va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. AICPA va CIMA zamonaviy audit vositalari – masofaviy audit, CAATs va ma'lumotlar tahlilini – muhim deb hisoblaydi. Shu bilan birga, SAS me'yoriy hujjatlari ham raqamli muhitga mos tarzda yangilangan.

SSL yondashuvi (Bell va boshqalar, 1997) auditorlardan tashkilotlarning texnologik tizimlari va ularning moliyaviy nazoratga ta'sirini chuqur anglashni talab qiladi. Williams va Benson (2025) esa auditorlar texnologik vositalar bilan ishlashda tanqidiy fikrlash qobiliyatini saqlab qolishlari zarurligini ta'kidlaydi.

Dennis (2024) yangi audit texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun ichki aloqa, uzluksiz o'qitish va yagona strategik qarash muhimligini ko'rsatadi. Texnologik salohiyat yetishmovchiligi esa asosiy to'siqlardan biridir.

KPMG (2023) ERP tizimlarining joriy etilishi jarayonida auditorlarning ichki nazorat va risklarni baholashdagi rolini ta'kidlaydi. Auditorlar kompleks tizimlarga moslashib, ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlashlari lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda auditorlik faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash holatini tahlil qilish uchun xalqaro nufuzli tashkilotlar va ilmiy manbalarga asoslangan adabiyotlar tahlili usuli qo'llanildi. Tadqiqot davomida auditorlik faoliyatida qo'llanilayotgan dasturiy ta'minot va texnologik vositalarni tahlil qilish uchun bir nechta asosiy mezonlar ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar orqali har bir texnologik vosita yoki platformaning auditni rejalashtirishdagi real ta'siri, funksionalligi va samaradorligi baholandi.

Quyidagi asosiy mezonlar tanlab olindi:

- Foydalanuvchanlik (usability): dasturiy vositaning auditorlar tomonidan qulay va tez o'zlashtirilishi, foydalanuvchi interfeysining soddaligi hamda funksiyalarining intuitivligi.
- Integratsiyalashuv darajasi: ilovaning boshqa axborot tizimlari (masalan, ERP tizimlari, moliyaviy dasturlar) bilan bog'lanish qobiliyati va ma'lumotlar uzatish imkoniyatlari.
- Xavflarni baholash imkoniyati: dastur auditorlarga ichki nazorat tizimlarini, potentsial xavflarni aniqlash va ularni tavsiflash imkonini beradimi-yo'qmi.
- Auditni avtomatlashtirish darajasi: dastur yordamida qanday audit funksiyalari (namuna olish, tahlil qilish, xulosalash) avtomatlashtirilganligi.
- Nazorat va monitoring vositalari: dastur davomiy audit monitoringi, real vaqt rejimidagi tahlil va g'ayrioddiy tranzaksiyalarni aniqlash imkoniyatiga egami.
- Global standartlarga moslik: ilovaning xalqaro audit standartlariga (ISA, SAS, GAAS) va reguliator talablarga muvofiqligi.

Ushbu mezonlar asosida CARDmap, Visual Assurance, Risk Control Workbench, ACL va IDEA kabi keng qo'llanilayotgan dasturiy vositalar har tomonlama o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, bu vositalarning aksariyati nafaqat yirik firmalar tomonidan, balki kichik va o'rta korxonalarda ham joriy etilishi mumkinligi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili va sanoat hisobotlariga asoslangan holda quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

- Axborot texnologiyalari audit jarayonlariga chuqur integratsiyalashmoqda va bu auditorlar faoliyatining formatini o'zgartirmoqda. An'anaviy, qo'lda bajariladigan vazifalar endi avtomatlashtirilgan va real vaqt rejimidagi tizimlar orqali amalga oshirilmoqda.
- AICPA va Accountancy ma'lumotlariga ko'ra, auditorlar elektron dalillarni to'plashda ichki nazorat tizimining sifatiga bevosita tayanmoqda. Bu esa zamonaviy dasturiy vositalarni talab qiladi⁵⁶.
- KPMG va Deloitte kabi yirik firmalar o'z tajribalarida ERP tizimlari va masofaviy audit texnologiyalarining o'rni, xavf asosidagi yondashuvlarning ustuvorligi hamda jarayon auditi konsepsiyasini keng yoritgan⁷.
- Mahalliy firmalar ham texnologiyalarga sarmoya kiritmoqda, ammo bu ko'proq cheklangan budjet va resurslar bilan amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, ular elektron ishchi hujjatlar, masofaviy kirish tizimlari va internet resurslarini faol qo'llamoqda.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologik vositalar faqat auditor ishini soddalashtirish emas, balki kasbning o'z tabiatini o'zgartiruvchi strategik resursga aylanmoqda. Audit jarayonining barcha bosqichlarida – ayniqsa rejalashtirish va bajarish davrida – ilg'or axborot texnologiyalari hamda maxsus dasturiy vositalar keng qo'llanilmoqda. Bunday vositalar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki xatolik va xavflarni kamaytirish imkonini beradi.

5 AICPA & CIMA. (n.d.). *AICPA SASs - Currently Effective*.

6 Accountancy. (2025, January 25). Computer-Assisted Audit Techniques (CAATs): Enhancing Efficiency and Accuracy in Modern Auditing.

7 KPMG. (2023). ERP tizimlarining auditorlik faoliyatidagi roli.



Eng ko'p qo'llaniladigan texnologik vositalardan quyidagilar alohida ajralib turadi:

- ACL (Audit Command Language): bu dastur auditorlarga katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini tahlil qilish, istisno holatlarni aniqlash, tranzaksiyalarni qatlamlash, tasdiqlovlar yaratish va audit testlarini avtomatik amalga oshirish imkonini beradi. Substansiv testlar sonini kamaytirib, audit natijalari aniqligini oshiradi.

- IDEA (Interactive Data Extraction and Analysis): mazkur dastur ACL bilan o'xshash funksiyalarga ega bo'lib, ayniqsa firibgarliklarni aniqlash, tranzaksiyalarni chuqur o'rganish va statistik tahlil qilishda samarali vositadir. Auditorlar IDEA yordamida 100% ma'lumotlar bazasini avtomatik tahlil qilish orqali yirik noaniqliklarni aniqlay oladilar.

- CAATs (Computer-Assisted Audit Techniques): ushbu yondashuv dasturiy vositalar asosida tahlil, verifikatsiya va testlarni amalga oshirishga asoslangan. CAATs yondashuvi orqali auditorlar moliyaviy ma'lumotlarni to'liq qamrab oluvchi nazoratni amalga oshiradilar.

Ushbu texnologiyalar auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish, real vaqt monitoringi, g'ayrioddiy holatlarni aniqlash va xulosalar chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, katta miqdordagi elektron ma'lumotlar bilan ishlanayotgan zamonaviy audit muhiti uchun bu vositalar zarurat darajasiga yetgan.

Bugungi kunda ko'plab kompaniyalar xavfga asoslangan audit yondashuvini qabul qilgan va tashqi hamda ichki xavflarning auditga ta'sirini tushunishga yordam beruvchi maxsus dasturlarni ishlab chiqqan yoki sotib olgan. Masalan, PricewaterhouseCoopers tomonidan ishlab chiqilgan "Risk Control Workbench" dasturi mijozlarga xavflarni kamaytirish maqsadida ichki nazoratni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Deloitte & Touche tomonidan ishlab chiqilgan "Visual Assurance" esa qonunlarga rioya qilish va nazorat monitoringini boshqarishda rahbariyatga yordam beradi. 1-jadvalda hozirda bir nechta yirik firmalar tomonidan qo'llanilayotgan xavf paketlarining qisqacha tavsifi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval Xavflarni boshqarish uchun dasturiy ta'minot ilovalari misollari⁸

Dasturiy ta'minot paketi	Izoh
Horizon (J.P. Morgan and Ernst & Young LLP)	Operatsion xavflarni baholash va boshqarish uchun veb-asoslangan dasturiy vosita. Dastur investitsiya banki faoliyati doirasida operatsion xavflarni baholaydi. Bu paket rahbariyatga xavf bo'yicha umimlashtirilgan ko'rinishni taqdim etib, yaxshiroq strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.
CARDmap (MCS and KPMG)	Foydalanish uchun qulay dastur bo'lib, tashkilot faoliyatining istalgan jihatini xaritalash imkonini beradi. Har bir bo'lim kompyuterlashtirilgan «karta»ga joylashtiriladi. Har bir karta ushbu bo'lim va unga tegishli xavfning umumiy holatini aks ettiradi. Dastur orqali xavflarni aniqlash, ularni baholash, mas'uliyatni taqsimlash va ustuvorliklar belgilanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan tashkilot bo'yicha xavflar holatining dolzarb va aniq manzarasi shakllantiriladi.
Visual assurance (Deloitte & Touche LLP)	Korporativ nazorat va muvofiqlikni monitoring qilish bo'yicha xalqaro standartni shakllantirayotgan dasturiy vosita. Deloitte & Touche LLP tomonidan ishlab chiqilgan bu tizim mijozlarga nazorat tizimlari va amaldagi qonunchilikka muvofiqligi bo'yicha ishonch hosil qilish imkonini beradi.
Risk control workbench (PricewaterhouseCoopers LLP)	Tashkilotning barcha xavf va nazorat bo'yicha ma'lumotlarini to'liq, yagona tizimda taqdim etuvchi dasturiy vosita. Qog'ozbozlikni kamaytirib, har qanday darajadagi xavflarni aniqlash va baholash imkonini beradi. U xavflarni xaritalashdan boshlab, tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishgacha bo'lgan butun jarayonni osonlashtiradi. Bu orqali ortiqcha yoki samarasiz nazorat protseduralari aniqlanadi va yo'qotiladi.
Facilitated control assessment (PricewaterhouseCoopers LLP)	Guruh yig'ilishlari va ilg'or texnologiyalar yordamida xavflarni boshqarish va nazorat choralari kelishib olish imkonini beruvchi vosita. Kompyuter orqali anonim fikr bildirish funksiyasi orqali xodimlar va rahbariyatni faol ishtirok etishga undaydi. Maqsadlar, xavf va nazorat choralari bo'yicha umumiy fikrga kelish natijasida ishlab chiqilgan harakat rejalarining amalga oshirish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining audit jarayonlariga chuqur integratsiyalashuvi ichki nazorat va xavflarni boshqarish amaliyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Dastlabki yondashuvlarda auditorlar xavflarni aniqlash va baholashda ko'proq tajriba va hujjatli dalillarga tayanishgan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayonlar zamonaviy dasturiy vositalar yordamida tizimli, real vaqt rejimidagi va avtomatlashtirilgan shaklda amalga oshirilmoqda.

8 1-jadvaldagi ma'lumotlar J.P.Morgan va Ernst & Young LLP, MCS va KPMG, Deloitte & Touche LLP va PricewaterhouseCoopers LLP materiallaridan tuzilgan



PricewaterhouseCoopers tomonidan ishlab chiqilgan Risk Control Workbench dasturi bu borada yorqin misollardan biri bo'lib, u tashkilot xavflari va nazorat choralarini haqidagi ma'lumotlarni yagona tizimda boshqarish imkonini beradi. Dastur foydalanuvchiga xavflarni xaritalash, ularni baholash, tegishli choralar rejasini ishlab chiqish va mavjud nazorat tizimining samaradorligini aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, bu platforma ortiqcha va samarasiz nazorat tartiblarini aniqlash orqali resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Yana bir ilg'or vosita – Facilitated Control Assessment dasturi – xodimlar va rahbariyatni xavf hamda nazorat masalalarida birgalikda ishlashga yo'naltiradi. Anonim fikr bildirish imkoniyati orqali turli darajadagi xodimlarning fikrlarini jamlab, yakuniy qarorlarni jamoaviy shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuv nazorat rejalarining amalga oshirish ehtimolini oshiradi va tashkiliy ishonchni mustahkamlaydi.

Bunday texnologiyalar auditorlarga nafaqat mavjud nazorat tizimini tekshirish, balki uni doimiy ravishda monitoring qilish, optimallashtirish va kerak bo'lsa, qayta loyihalash imkonini beradi. Natijada, xavflar va zaifliklar oldindan aniqlanib, ular yuzaga chiqmasidan oldin bartaraf etilishi mumkin.

Audit texnologiyalarining qo'llanilishi global miqyosda keng ko'lamda o'sib bormoqda. Xalqaro yirik auditorlik firmalari – KPMG, Deloitte, PwC va EY – allaqachon raqamli vositalarni o'z faoliyatiga to'liq integratsiya qilgan. Ular masofaviy audit, bulutli platformalarda ishlash, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va real vaqt monitoring tizimlari orqali auditning har bir bosqichini avtomatlashtirishga erishgan.

KPMG (2024) ma'lumotlariga ko'ra, korporativ axborot tizimlaridan foydalanish yildan-yilga 35 foizga o'smoqda. SAP R/3, Oracle, Baan kabi ERP tizimlari auditorlarga mijoz biznesining har bir jarayonini bosqichma-bosqich kuzatish, ichki nazoratning ishonchligini baholash va to'liq audit izini yaratish imkonini bermiqda⁹.

Mahalliy audit firmalari esa bu tendensiyalarga asta-sekin moslashmoqda. Dennis keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, kichik va o'rta firmalar texnologiyaga bo'lgan sarmoyani o'z daromadlarining 2–9 foiziga qadar oshirmoqda. Bu sarmoyalar asosan zamonaviy protsessorlar, tarmoq infratuzilmasi va xodimlar malakasini oshirishga yo'naltirilmoqda. Ayni paytda elektron ishchi hujjatlar, masofaviy kirish dasturlari va internet orqali hujjat aylanishi kabi imkoniyatlar ularga yuqori texnologiyali audit yondashuvlariga yaqinlashishga yordam bermiqda¹⁰.

Shu bilan birga, ba'zi mahalliy firmalar texnologik maslahat xizmatlarini ham kengaytirmoqda. Bu nafaqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish, balki korxonalarga texnologik transformatsiyada ko'maklashish, nazorat tizimlarini qurish va risklarni boshqarish sohasida maslahatlar berishni o'z ichiga oladi. Bunday xizmatlar orqali mahalliy firmalar nafaqat raqobatbardoshlikni saqlab qolmoqda, balki bozor ulushini ham oshirmoqda.

Korporativ axborot tizimlari (Enterprise Resource Planning – ERP) zamonaviy auditorlik amaliyotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yirik va o'rta miqyosdagi tashkilotlarda SAP, Oracle, PeopleSoft kabi ERP tizimlarining keng joriy qilinishi auditorlar uchun ham yangi imkoniyatlar, ham murakkabliklarni yuzaga chiqarmoqda.

SAP R/3 tizimi, masalan, barcha biznes jarayonlarni yagona platformada birlashtirib, ularni real vaqt rejimida kuzatish, nazorat qilish va hisobotlash imkonini beradi. Auditorlar bu tizim orqali moliyaviy tranzaksiyalarni boshlang'ich nuqtadan yakunigacha to'liq izlab borishi, voqealar ketma-ketligini tahlil qilishi va amaldagi harakatlarni belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtirishi mumkin. Bu esa auditorlik tekshiruvining aniqligini va dalilini asosini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Oracle tizimi ham o'zining moslashuvchanligi va tarmoq infratuzilmasiga integratsiyalashuv imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu tizimda auditorlar uchun xavfsizlik devorlari, ruxsat darajalari, parollar va elektron izlar kabi nazorat vositalarining mavjudligi elektron dalillarni baholashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, foydalanuvchi faolligi, tranzaksiyalar oqimi va ichki muvofiqlik monitoringi doimiy ravishda kuzatiladi.

KPMG tomonidan taqdim etilgan prognozlarga ko'ra, ERP tizimlaridan foydalanish yaqin uch yil ichida sezilarli darajada kengayadi va har yili o'rtacha 30–35 foizlik o'sish kuzatiladi. Bu esa auditorlardan texnologik savodxonlikni oshirishni, axborot tizimlarini chuqur tushunishni va tizimlar asosida auditni olib borish kompetensiyasini talab qiladi.

Shu tarzda, korporativ axborot tizimlari auditorlar uchun nafaqat ma'lumot manbai, balki ichki nazoratning ishonchligi, firibgarliklar ehtimolini aniqlash va audit strategiyasini shakllantirishda asosiy tayanchga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan adabiyotlar sharhi, amaliy kuzatuvlar hamda texnologik vositalarning qo'llanilishiga oid tahlillar asosida bir qator muhim xulosalar ishlab chiqildi. Avvalo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari audit jarayonining barcha asosiy bosqichlariga – rejalashtirish, bajarish, test sinovlarini o'tkazish va natijalarni hujjatlashtirish – chuqur singib borayotgani kuzatilmogda. Xususan,

9 KPMG. (2024, July 24). The Role of Internal Audit Along the Journey Towards SAP S/4HANA.

10 Dennis, A. (2024, April 1). Managing Change in Audit Technology Transformation. Journal of Accountancy.



rejalashtirish bosqichida risklarni baholash, ichki nazorat tizimlarini tahlil qilish hamda audit testlarini ishlab chiqishda zamonaviy dasturiy vositalarning roli alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot texnologiyalari nafaqat auditning samaradorligi va aniqligini oshiradi, balki firibgarlik va xatoliklarni aniqlash, uzluksiz monitoringni amalga oshirish, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish hamda auditorlarning kasbiy rolini tubdan qayta shakllantirish imkonini beradi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ilg'or texnologiyalar yordamida auditorlik xizmatlari hajmi kengaymoqda va yangi, innovatsion xizmat turlari shakllanmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy auditorlik firmalari ham mazkur o'zgarishlarga moslashishga intilmoqda. Biroq ularning texnik, moliyaviy va inson resurslariga doir cheklovlari mavjud. Shunga qaramay, texnologik yondashuvlar yordamida audit sifatini va ishonchliligini oshirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjudligi aniqlanmoqda.

Zamonaviy raqamli muhitda audit jarayonini texnologik vositalarsiz amalga oshirish deyarli imkonsiz bo'lib qolmoqda. Tashkilotlar o'z faoliyatini to'liq raqamlashtirayotgan sharoitda auditorlik subyektlari ham texnologiyalarni qo'llashni nafaqat tanlov, balki zarurat sifatida qabul etishlari lozim. Elektron hujjatlar, korporativ resurslarni boshqarish (ERP) tizimlari, masofaviy kirish imkoniyatlari va real vaqt rejimidagi tahlil vositalari zamonaviy auditning ajralmas komponentlariga aylanmoqda.

Bunday texnologik imkoniyatlar yordamida auditorlar mijoz tashkilotlarining ichki jarayonlarini chuqur tahlil qilish, potentsial xavflarni oldindan aniqlash va xatoliklar yuzaga chiqmasidan oldin ularni oldini olish imkoniga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, dasturiy vositalar orqali butun ma'lumotlar bazasini tahlil qilish imkoniyati substansiv testlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, auditning aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Shu bois, auditorlik firmalari texnologiyalardan foydalanishni o'zining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashi zarur. Endilikda texnologiyalar audit jarayonida yordamchi vosita bo'lishdan chiqib, uning shakllanishini belgilovchi markaziy omilga aylanmoqda.

Shuningdek, auditorlik sohasi tezkor texnologik o'zgarishlar fonida an'anaviy chegaralarini kengaytirib, strategik, analitik va texnologik yo'nalishlarga yo'naltirilgan kasbga aylanmoqda. Kelajakda auditorlardan nafaqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish, balki biznes modellarni tahlil qilish, xavflarni proaktiv baholash hamda tashkilotlarga texnologik maslahatlar berish kabi ko'p funksiyali vazifalarni bajarish kutilmoqda.

Bunday yangi vazifalar va talablarga tayyor bo'lish uchun auditorlar sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data), avtomatlashtirilgan tahlil vositalari va raqamli nazorat tizimlarini chuqur o'zlashtirishi lozim. Bu orqali ular nafaqat ishonchli hisobotlar, balki strategik qiymatga ega tavsiyalarni ham taqdim eta oladi.

Bundan tashqari, kelajakdagi auditorlik amaliyotida etik muammolar, axborot maxfiyligi, raqamli xavfsizlik, sun'iy intellekt natijalarining baholanishi kabi dolzarb masalalar yuzaga chiqishi kutiladi. Bu esa texnik bilimlar bilan bir qatorda strategik tafakkur, mas'uliyatli qaror qabul qilish va tezkor moslashuvchanlikni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, auditorlik kasbi texnologiya bilan uzviy bog'langan, ko'p funksiyali va yuqori malakali professionallardan iborat tizimli sohaga aylanmoqda. Bu jarayonda texnologiyalar nafaqat yordamchi omil, balki kasbni tubdan yangilovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. AICPA. (2024). Audit Evidence. AICPA & CIMA. <https://www.aicpa-cima.com/topic/audit-assurance/audit-evidence>
2. AICPA & CIMA. (n.d.). AICPA SASs - Currently Effective. <https://www.aicpa-cima.com/resources/download/aicpa-statements-on-auditing-standards-currently-effective>
3. Accountancy. (2025, January 25). Computer-Assisted Audit Techniques (CAATs): Enhancing Efficiency and Accuracy in Modern Auditing.
4. Bell, T., Marrs, F., Solomon, I., & Thomas, H. (1997). Auditing Organizations Through a Strategic-Systems Lens. KPMG Peat Marwick LLP.
5. Benson, K. L., & Williams, C. P., & Sandra, S. J. D. (2025, April 1). How Accountants Can Balance Technology and Critical Thinking. Journal of Accountancy.
6. Dennis, A. (2024, April 1). Managing Change in Audit Technology Transformation. Journal of Accountancy.
7. ERP Advisory. KPMG.
8. KPMG. (2024, July 24). The Role of Internal Audit Along the Journey Towards SAP S/4HANA.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>